

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARGA HORIJIY TILLARNI O’RGATISH.

*Kosimova Nargiza Dilmuratovna. ADCHTI
Ijtimoiy-gumanitar fanlar, pedagogika
va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n
Anvarjonova Davlatoy Xayotbek qizi
Andijon davlat chet tillar instituti
MBTIT yo’nalishi 1 kurs talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o’rgatish qanchalik muhim ekanligi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Chet til, olimlar, maktabgacha ta’lim muassasasi, metod, usul, o’yin.

So’nggi bir necha yil ichida xorijiy tilni o’rganish o’zini ustida ishlash yoki o’zini rivojlantirishning usuli emas, bu barcha uchun zarurat bo’lib qoldi. Chet tillarni avvalari faqatgina, maktablarda, universitetlarda o’rgatilsa, hozirda maktabgacha ta’lim muassasalarida ham majburiy bo’lib qoldi. Hozirgi kunda eng rivojlangan til bu ingliz tili hisoblanadi va juda ham ko’p yoshlar ushbu tilni qiziqib o’rganishmoqda, shuningdek, mamlakatimizda xorijiy tilni o’rgatish ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg’ayib kelayotgan yosh avlodga barcha kerakli shar-sharoitlarni yaratish maqsadida; 2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi qonuni ishlab chiqildi va 15,0 mlrd so’m xorijiy tillarni o’rgatishi uchun mablag’ ajratildi. Prezidentimiz aynan maktabgacha ta’lim muassasalarida talim olayotgan yosh avlodga katta e’tibor qaratmoqda. Sababi bolalarda, ayniqsa, bog’cha yoshidagi bolalarda xotira kattalarnikiga qaraganda mustahkam va mukammal bo’ladi. Eslab qolishi osonroq hisoblanadi. Shuningdek, hozirda barcha maktabgacha ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni mukammal tarzda o’rgatilmoqda. Undan tashqari hozirda ota-onalar ham bolalari zamonaviy tillarni yoshlik paytidan o’rganishini xohlashmoqda va bolaning ustoz bilan har doim muloqotda bo’lib turishmoqda. Bog’cha yoshidagi bolalarda chet tillarni o’rgatish usullari juda ham ko’p. Ulardan eng samaralisi bu o’yin orqali o’rgatish usuli. O’yin orqali o’rgatishda bolalarda ham jismoniy, ham ruhiy tetiklikni shakllantirishda yordam beradi. Undan tashqari qo’shiq kuylash, she’r aytish, raqsga tushish orqali ham bola chet tilini oson o’rganadi. Masalan, qo’shiq aytish orqali biror bir inglizcha qo’shiqni tanlab, bolani raqsga tushirib qo’shiqni birgalikda takrorlash orqali u qoshiq bola xotirasida qoladi. Va tilga bo’lgan qiziqishini ortiradi.

Dunyo olimlarini ta’kidlashicha 10 yoshgacha bolalar tilni oson o’zlashtiradi. 3 yoshgacha bolalarning miyasi kattalarnikiga qaraganda 2 barobar tez va yaxshiroq ishlaydi. Shu sababli, ikkinchi tilni o’rgatishni yoshlik davridan boshlash kerak. Lekin, avvalo, bola psixologiyasini o’rganish va tilga bo’lgan qiziqishini aniqlash muhim o’rin tutadi. Har bir bola shaxs individ hisoblanadi. O’zining shaxsiy fikrlashiga, xarakteri va qiziqishlariga ega bo’ladi. Ota-onalar bolasi har tomonlama mukammal va yetuk farzand bo’lishini xohlaydi. Agar farzandi biror bir xatoga yoki muaffaqiyatsizlikka uchrasa, ota-onasi tanbeh berishadi yoki boshqa bolalarga taqqoslashni boshlaydi. Natijada bolada o’sha narsaga bo’lgan qiziqish sustlashadi. Va bola psixologiyasiga ta’sir qiladi. Bunday holat bo’lmasligi va oldini olish bo’yicha ota-ona va tarbiyachining ro’li beqiyosdir. Bolani ko’proq rag’batlantirish va maqtash orqali o’rganishga qiziqtirish mumkin. Garchi bola xato qilsa ham to’g’ri tushuntirilsa, albatta, bola bu xatoni takrorlamaydi. Shuningdek, ingliz tilini mukammal o’rgatishning yana bir turi ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg’uni ingliz tiliga berish kerak. Bola grammatik jihatdan xato

gapirsa,ustozi to'xtatmaslik,aksincha,birinchi u bolani maqtab keyin ozgina xatolari ustida ishlashi kerkaligi haiqda aytilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Rag'batni,avvalo,bolaga emas,u qilgan amalgam oshirgan ishga berish kerak.Aks xolda rag'bat bolaga nisbatan berilsa,kelajakda u xudbin inson bo'lib yetishishi mumkin.Aksincha,u bajargan ishga qaratilsa,kelajakda u bajargan ishlar samarali va a'lo darajada bo'ladi.Bolalar uchun yana bir metod turli xil ertak qahramonlarini kiyimlarini kiyib ularga shu orqali ingliz tilini o'rgatilsa,bolada fikrlash qobiliyati rivojlanadi.Ya'ni bola juda ham qiziquvchan,hali savollari ko'p dunyo bilan endi tanishayotgan yoshda bo'ladi va o'sha ertak qahramoni ham u uchun yangilik bo'ladi.Ayniqsa bu metod orqali so'z boyligi,tasavvuri va fikrlashi kengayadi.Ta'limiy faoliyatda va til o'rganilyotganda har bir bolaga alohida e'tibor berilishi kerak va yaxshi o'rganayotgan bolalarni rag'batlantirish kerak.Bu bir-biriga nisbatan raqobatni uyg'otadi va bir-biridan o'zib ketish uchun qattiq harakat qilib o'qishadi.Maktabgacha ta'lim muassasalarida asosan darslar haftada 2 yoki 3marta 25-30 minutdan o'tkazilishi tavsiya qilinadi yoki haftada 5 marta 11—20 minutdan o'tkazish tavsiya qilinadi.Sababi bolalar zerikib qolishi va tilga bo'lgan qiziqishi sustlashishi mumkin va darsdan tashqari erkin suhbatlar,turli xil qo'shiqlar yod olish,she'rlar aytish yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.U Xoshimov “Ingliz tili o'qitish metodikasi” kitobida aytganidek,darsda qo'g'irchoq rasmlardan,predmetlardan foydalaniladi.Har bir darsda 4-5 ta so'z o'rgatish maqsadga muvofiqdir.I see..., I have got...,Give me...,It is...,kabi strukturalar ishlatiladi.Bog'cha yoshidagi bolalarda birinchi yilda oddiy so'zlar inglizcha salomlashish,xayrlashish,o'zini,oilasini tanishtirish,kechirim so'rash o'rgatiladi.(2.252).Shu bilan boladan ozgina rivojlanish va o'sish bo'ladi.Va kuniga eng ko'pi 5-6 ta yangi so'z o'rgatilib borsa bola ancha til o'rganishda muaffaqiyatga erishsa bo'ladi.Undan tashqari My family,My toys,Spring,winter,Our city,In the street mavzulari haqida qisqa-qisqa dialoglar va ularga oid yangi so'zlar o'rgatiladi.Bola 3 yoshgacha bo'lgan davrda barcha narsaga qiziquvchan,injiq bo'lib qoladi.Ya'ni “o'zim qilaman”,“o'zim uddalayman” degan fikr bo'ladi va hamma narsani o'zim qilaolaman deb o'ylaydi.Va bu vaziyatda ota-onalar o'z holiga qo'yib qo'yish kerak.Ya'ni o'sha ishni o'zi bajarsin oxiri qanday tugasa ham.Lekin ota-ona doimiy nazorat ostiga olishi kerak.

Yana bir metodika kartochkalarga yoki oq listga o'rganilyotgan so'zlarni sur'atini chizib o'rgatish eng yaxshi usullardan hisoblanadi.Misol uchun,mevalarni o'rganilyotganda banan yoki olmani sur'atini chizib bolalar bilan birgalikda takrorlash kerak.Bu eng yaxshi metod hisoblanib,hozirgi kunda xitoyda tarbiyachilardan razm chizish mahoratiga ega bo'lishi talab qilinyapti.

Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay,balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.Ya'ni bola o'sha rasmni biror joyda ko'rsa,uning inglizcha nomi esiga keladi.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam) Bu tezkor o'yin hisoblanadi.Ammo o'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi.Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi,ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganda qolgan bolalar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi.Bu o'yinni o'ynash uchun ko'ptokcha kerak bo'ladi va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari lozim.Istalgan bir mavzu tanlashi kerak bo'ladi.Masalan:Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar),food,profession va hakazo.Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi.O'sha o'quvchi mavzuga oid biror bir so'z aytadi va to'pni keyingi ishtirokchiga uzatadi.Agar so'z topaolmasa o'yindan chetlashtiriladi va shunday davom ettiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini mukammal tarzda o'rgatilishi va o'yinlar orqali bolani qiziqtrish va til ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim.Ingliz tilini bolalar o'z tarbiyachisida o'rganganlari ancha yaxshi.Sababi ular tarbiyachisiga o'rganib qolgan bo'ladi.Chet tillarni bolaga o'rgatayotganda har tomonlama o'ylash,barcha didaktik printsiplar,ya'ni tizimlik,tarbiyaviy ta'lim faolik ko'rgazmalilik bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amaliyotga tatbiq etilishi kerak.Maktabgacha yoshdagi bolalarning chet

tilini bilish ko'nikmalarini oshirishda zamonaviy metod va yondashuvlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maksudova M.A “Muloqot psixologiyasi”, “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006, -Tashkent, -B-16.
2. U.Xoshimov “Ingliz tili o'qitish metodikasi”, “Sharq” nashriyoti, 2003-Tashkent, B-252